

H.Hamroqulov, H.Daliyeva

**Musiqa nazariyasi fanidan oraliq nazorat
uchun test topshiriqlari to‘plami
(METODIK QO‘LLANMA)**



FARG‘ONA - 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**Musiqa nazariyasi fanidan oraliq nazorat
uchun test topshiriqlari to‘plami
(METODIK QO‘LLANMA)**

FARG‘ONA - 2015

Ushbu metodik qo‘llanmada bolalar musiqa va san‘at maktablari 4-sinflarida musiqa nazariyasi fanidan oraliq nazoratlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan testlar to‘plami hamda ularni tuzish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Mazkur qo‘llanma umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining musiqa madaniyati hamda bolalar musiqa va san‘at maktablari musiqa nazariyasi o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

- Tuzuvchilar:** 1. Farg‘ona VXTXQTMOI tabiiy va aniq fanlar ta‘limi kafedrasida katta o‘qituvchisi H.Hamroqulov.
2. Farg‘ona viloyati, Dang‘ara tumani, 27-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabi “Musiqa nazariyasi” bo‘limi o‘qituvchisi H.Daliyeva.

- Taqrizchilar:** 1. D.Mamatov – Farg‘ona VXTXQTMOI amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta‘lim kafedrasida mudiri.
2. G.Esonova – Farg‘ona viloyati, Dang‘ara tumani, 27-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabi direktori.

Farg‘ona VXTXQTMOI amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta‘lim kafedrasida yig‘ilishida muhokama qilingan va ma‘qullangan (2015-yil «27» Avgustdagi 7-sonli bayonnoma)

Farg‘ona viloyati xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy Kengashining 2015-yil “29” Sentyabrdagi 4–sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

“Test” atamasi birinchi marta amerikalik psixolog J.Kettel tomonidan 1890-yilda kiritilgan. “Test” atamasi inglizcha “test” soʻzidan olingan boʻlib, tekshirish, nazorat, sinov maʼnolarini bildiradi. Pedagogikada “test” atamasi oʻziga xos shaklga va mazmunga, turli qiyinlik darajasiga ega boʻlgan, oʻquvchilar oʻzlashtirishi darajasini xolisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tizimidan iborat.

1992-yil martida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov farmoni bilan Respublikamiz oliy oʻquv yurtlariga qabulni test asosida oʻtkazish joriy qilindi. Bu ilgari foydalanish taqiqlangan yoki cheklangan pedagogik test sinovlarining taʼlim tizimiga keng joriy qilinishiga asos soldi. Mustaqil Oʻzbekiston MDH mamlakatlari ichida birinchi boʻlib olimlar uchun chet el fanining amalda oʻzini oqlagan natijalarini, tabiiyki, Oʻzbekiston anʼanalari va tajribasini nazarda tutib anglash, tanlab olish va foydalanish imkoniyatlarini yaratib, jahon pedagogika faniga "darcha" ochdi.

Test topshiriqlarining bajarilish darajasi oʻquvchilarning oʻquv materiallarini ruhiy jihatdan qay yoʻsinda ekanligini aniqlashga yordam beradi:

- axborotni bilish, yod olish va soʻzlab berish;
- reproduktiv fikrlash;
- produktiv fikrlash;
- izlanuvchi-ijodiy fikrlash.

Eslab qolish, bilib olish va axborotni tahlil qilish: bu oʻrinda eslab qolish qobiliyati bilan bogʻliq boʻlgan bilimlar tekshiriladi.

Reproduktiv darajasidagi test topshiriqlari pedagogik yoʻnalishdagi testlarda keng qoʻllaniladi. Ular yordamida oʻrganilgan printsiplar, qoidalar qoʻllanishi mohiyati oʻrganiladi.

Produktiv darajadagi test: bu oʻquvchidan olgan bilimlari asosida nostandart masalalarni yechishda mustaqil fikr yuritishni talab qiladi.

Izlanuvchi-ijodiy darajadagi test: maʼlumki, ijod – bu moddiy va maʼnaviy sferada yangilik barpo etish, hozircha javobi yoʻq masalani yechish demakdir.

Test topshiriqlarining tarkibini tuzishda quyida keltirilgan 4 xil formalardan birini tanlash mumkin: yopiq, ochiq, oʻxshashlikni shakllantirish va ketma-ketlikni tartibga solish. Test topshiriqlarining boshqa turlari ham mavjud (zanjirsimon, matnsimon va h.k)

Yopiq test. Bu xil topshiriqlar shartlar va savollardan iborat boʻlib, unda bitta javob toʻgʻri, qolganlari notoʻgʻri, lekin haqiqatga yaqin.

Bu topshiriq "yopiq" deb atalishining sababi shundan iboratki, oʻquvchi oʻz javobini bera olmaydi, u bir qancha berilgan tayyor javoblardan uningcha toʻgʻri boʻlgan javobni tanlaydi.

Yopiq test topshiriqlarida bir necha toʻgʻri javoblar boʻlishi mumkin. Bir xil test topshiriqlarida shartlarni savol tariqasida berish mumkin. Test ishlab chiquvchi bir qancha berilishi mumkin boʻlgan savollar ichidan aynan keraklisi berilganligiga ishonch hosil qilish zarur. Keyin u shartlarni va javoblarni shunday tuzish kerakki, toki unga berilgan javob yuzaki emas, aql ishlatib topilishi lozim.

Yaxshi tuzilgan test topshirig'i o'quvchidan o'ylab, butun olgan bilimlarini ishga solgan holda javob berishga undashi lozim. Test topshiriqlari o'zlashtiruvchi uchun murakkab bo'lmay, balki o'z bilimini namoyon etishga imkoniyat berishi shart.

Masalan:

Interval necha tovushdan iborat?

- A) 4;
- B) 3;
- C) 2;
- D) 5.

Yopiq test topshiriqlari abituriyentlarning oliy ta'lim muassasalariga kirishlarida, yakuniy va boshqa nazorat turlarida ishlatiladi. Ular kompyuterlar bilan "til topishadilar" va kompyuterlarga kiritiladigan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi test sistemalarida qo'llaniladi.

Ochiq test topshiriqlari. Bu test turiga xohlagan javobni berish mumkin. Topshiriqda kalit tushirilib qoldiriladi.

Masalan :

Intervalning eng yukoridagi tovushi – bu....

_____.

Tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.

_____ 7-pog'ona 0,5 ton ko'tariladi.

Ochiq test topshiriqlari dasturlashtirilgan o'quvda qo'llaniladi. Xohlagan javob berilishi mumkinligi tufayli ochiq test topshiriqlari kompyuter test nazorati uchun noqulaydir.

O'xshashlikni shakllantirish. Bu topshiriqlarning ma'nosi bir ko'plikning elementlarining ikkinchi ko'plik elementlariga o'xshashligini isbotlashdan iborat.

Masalan:

1. Jadval katakchalariga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'ying (Oddiy, Tarkibli, Miqdorli).

Interval turi	Tavsifi
	Oralig'i 1 oktavadan keng bo'lgan interval
	Tarkibida miqdori ton va 0,5 tonlardan iborat interval
	Bir oktava oralig'idan oshmaydigan interval

2. Jadvalning chap qismida uzaytiruvchi belgilar va o'ng tomonida ularning vazifalari berilgan. Bo'sh kataklarni vazifalarga mos uzaytiruvchi belgilar raqamlari bilan to'ldiring.

Belgilarning raqamlari	Uzaytiruvchi belgilar	Belgilarning raqamlari	Vazifalari
1.	Nuqta		Cho'zimni asar xarakteriga bog'liq ravishda, istagancha cho'zilishni bildiradi.
2.	Qo'sh nuqta		Cho'zimni yarim barobar

			uzaytiradi.
3.	Liga		Cho'zimni yarim va yana chorak barobar uzaytiradi
4.	Fermata		Bir xil balandlikdagi cho'zimlarni birlashtiradi.

Tartibga solish uchun mo'ljallangan test topshiriqlari. Bu uslub berilgan harakat, hisob-kitob, fikrlarni to'g'ri tushunishni tekshirish uchun qo'llaniladi.

Masalan:

Notalarning to'g'ri ketma-ketligini toping.

1. Mi.

2. Do.

3. Fa.

4. Si.

5. Lya.

6. Re.

7. Sol.

Mazkur metodik qo'llanmada oraliq nazorat orqali o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan test topshiriqlaridan namunalar keltirilgan. Undan foydalanuvchilar o'z tajribalaridan kelib chiqib, ijodiy yondashgan holda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

1-chorak yakunida o'tkaziladigan oraliq nazorat uchun test topshiriqlari

1. Tovush xususiyatlarini aniqlang.

- A) Baland – past;
- B) Fizik – sezgi;
- C) Jarangli – yoqimli;
- D) To'liqinli – tekis.

2. Interval nechta tovushdan tuziladi?

- A) 3;
- B) 4;
- C) 2;
- D) 5.

3. Intervallar necha xil bo'ladi?

- A) 7;
- B) 8;
- C) 4;
- D) 2.

4. Qaysi javobda sof kvinta to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Do-mi;
- B) Do-lya;
- C) Do-fa;
- D) Do-sol.

5. O'lchov deb nimaga aytiladi?

- A) Musiqa asarining bir kuchli hissadan navbatdagi kuchli hissagacha bo'lgan oralig'iga;
- B) Bir xil balandlikdagi tovush cho'zimlarini birlashtiruvchi belgiga;
- C) Turlicha nomdagi tovushlarning balandlik jihatidan tengligiga;
- D) Metr hissasining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishiga.

6. Har xil oddiy o'lchovlarning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan o'lchovlar – bu...

- A) O'zgaruvchan o'lchov;
- B) Murakkab o'lchov;
- C) Aralash o'lchov;
- D) Oddiy o'lchov.

7. Qaysi qatorda oddiy o'lchovlar kiritilgan?

- A) 2\4;
- B) 6\4;
- C) 5\4;

D) 3\8.

8. Transpozitsiya necha usul bilan amalga oshiriladi?

A) 3;

B) 2;

C) 4;

D) 5.

9. Ritm so'zining ma'nosini toping.

A) yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «Oqim»;

B) lotincha so'zdan olingan bo'lib, «Oraliq»;

C) yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «Ohangdoshlar»;

D) lotincha so'zdan olingan bo'lib, «Qattiq».

10. Mi major va do diyez minorning harfiy sistemada belgilanishini toping.

A) S-DUR a-moll;

B) G-DUR e-moll;

C) B-DUR g-moll;

D) E-DUR sis-moll.

11. Mi major gammasida nechta alteratsiya belgilari bor?

A) 5;

B) 4;

C) 3;

D) 2.

12. Interval aylanishi deb nimaga aytiladi?

A) Bir-biri bilan uyg'unlashgan, ohangdosh, yumshoq eshitilgan tovushlar yig'indisi;

B) Oralig'i oktavadan keng bo'lgan intervallar;

C) Bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga, yuqoridagi tovush pastga joylashishiga;

D) Pog'ona miqdori turlicha va eshitilishi bir xil bo'lganligiga.

13. Pauza deb nimaga aytiladi?

A) Asosiy pog'onalarining ko'tarilishi yoki pasayishiga;

B) Musiqada vaqtincha to'xtalishga;

C) Musiqa tovushlarining qattiq - sekin ijro etilishiga;

D) Temperatsiyalangan tovush qatori.

14. Uch tonlikni aniqlang.

A) ort 4 kam 5;

B) sof 1 sof 8;

C) kat 3 kich 3;

D) kat 2 kich 2.

15. **Major so'zining ma'nosini toping.**

- A) O'zgaruvchan;
- B) Kattaroq;
- C) Yuqori ton;
- D) Belgi.

16. **D-DUR da IV bosqichni aniqlang.**

- A) Fa;
- B) Lya;
- C) Mi;
- D) Sol.

17. **Garmonik minorda qaysi pog'onalar o'zgaradi?**

- A) 7-pog'ona 0,5 ton ko'tariladi;
- B) 7-pog'ona 0,5 ton pasayadi;
- C) 6-7-pog'ona 0,5 ton ko'tariladi;
- D) 6-pog'ona 1 ton pasayadi.

18. **Orttirilgan kvarta necha tondan iborat?**

- A) 4;
- B) 2;
- C) 3;
- D) 2,5.

19. **Major gammasining garmonik ko'rinishini toping.**

- A) 7-pog'ona 0,5 ton ko'tariladi;
- B) 7-pog'ona 0,5 ton pasayadi;
- C) 6-7-pog'ona 0,5 ton ko'tariladi;
- D) 6-pog'ona 0,5 ton pasayadi.

20. **3\8 o'lchovi qaysi guruhga kiradi?**

- A) Oddiy o'lchovlar;
- B) O'zgaruvchan;
- C) Aralash;
- D) Murakkab.

2-chorak yakunida o'tkaziladigan oraliq nazorat uchun test topshiriqlari

1. **Uchtovushlik necha xil bo'ladi ?**

- A) 4;
- B) 3;
- C) 2;
- D) 5.

2. **Minor uchtovushlikni aniqlang.**

- A) Do-mi-sol;
- B) Mi-sol#-si;
- C) Lya-do-mi;
- D) Re-fa#-lya.

3. **Re major tonalligida T6 akkordning tovushlarini aniqlang.**

- A) Lya re fa#;
- B) Fa# lya re;
- C) Fa# lya do;
- D) Lya do mi.

4. **Uchtovushlikning yuqori tovushi nima deb ataladi?**

- A) Prima;
- B) Sekunda;
- C) Tersiya;
- D) Kvinta.

5. **Lad deb nimaga aytiladi?**

- A) Metr hissasining ma'lum bir cho'zimdagi ifodalanishiga;
- B) O'zaro bog'langan musiqali tovushlarning tonika deb ataladigan tovushlar doirasida joylashuviga;
- C) Pog'ona miqdori turlicha va eshitilishi bir xilda bo'lgan intervallarga;
- D) Ritm va metr zarblarining bir biriga to'g'ri kelmay qolishi.

6. **T6\4 akkordning interval oralig'ini toping.**

- A) Kich3 sof4;
- B) Kat3 kich3;
- C) Sof4 kat3;
- D) Kich3 kich3.

7. **Minor uchtovushligini t5\3 interval oralig'ini toping.**

- A) Kich3 kat3;
- B) Kat3 kich3;
- C) Sof4 kat3;
- D) Kich3 kich3.

8. **Uchtovushlik nechta aylanmagan ega?**

- A) 3;
- B) 1;
- C) 4;
- D) 2.

9. **Tabiiy major ladi pog'onalarini tizimini aniqlang.**

- A) Ton 0,5 Ton Ton 0,5 Ton Ton;

- B) Ton Ton 0,5 Ton Ton Ton 0,5 Ton;
- C) Ton Ton Ton 0,5 Ton Ton 0,5 Ton;
- D) Ton Ton Ton 0,5 Ton 0,5 Ton Ton.

10. **Turg'un tovushlarning pog'onalarini aniqlang.**

- A) I-III-V;
- B) I-IV-VI;
- C) II-IV-VI-VII;
- D) I-II-III.

11. **Sinkopa deb nimaga aytiladi?**

- A) Kvarta intervali doirasida sekundalar bo'yicha joylashgan to'rt tovushdan iborat melodik yo'nalishiga;
- B) Oralig'i oktavadan keng bo'lgan intervallar;
- C) Kuchsiz hissadan boshlangan t'uliy bo'lmagan takt;
- D) Ritm va metr zarblarining bir biriga to'g'ri kelmay qolib, izchillik buzilishiga.

12. **Asosiy bosqich uchtovushliklari TSD qaysi pog'onadan tuziladi?**

- A) II-IV-VI;
- B) I-IV-V;
- C) I-III-V;
- D) I-II-III.

13. **Zarblari har ikki hissadan keyin takroblanib turuvchi o'lchovni toping.**

- A) $3\sqrt{4}$;
- B) $2\sqrt{4}$;
- C) $6\sqrt{4}$;
- D) $7\sqrt{8}$.

14. **ALLA breve – bu**

- A) Sinkopa;
- B) Ritm;
- C) Metr;
- D) O'lchov.

15. **Takt chiziqlari nota yozuvida nechanchi asrlarda paydo bo'lgan?**

- A) XVI;
- B) XV;
- C) XIV;
- D) XVII.

16. **Harfiy sistemada dubl# belgisi qaysi?**

- A) F;

- B) Eses;
- C) Isis;
- D) Moll.

17. Liga lotinchi so'zdan olingan bo'lib... degan ma'noni bildiradi.

- A) To'xtash;
- B) Bog'lamoq;
- C) Tugallash;
- D) Oraliq.

18. Oddiy interval nechta bo'ladi?

- A) 8;
- B) 3;
- C) 1;
- D) 2.

19. Fortepianoda nechta oktava bor?

- A) 7;
- B) 6;
- C) 8;
- D) 5.

20. Kuyni bezash uchun ishlatiladigan turlicha melodik figuralar – bu

- A) Melizm;
- B) Traspozitsiya;
- C) Modulyatsiya;
- D) Og'ishma.

3-chorak yakunida o'tkaziladigan oraliq nazorat uchun test topshiriqlari

1. Lya-bemol major va fa-minorda nechta alteratsiya belgisi bor?

- A) 4;
- B) 3;
- C) 2;
- D) 1.

2. Qaysi javobda lya-bemol major harfiy sistemasi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) A-DUR;
- B) AS-DUR;
- C) H-DUR;
- D) E-DUR.

3. Lya-bemol major kvarta doirasida nechanchi gamma?

- A) 3;
- B) 6;

- C) 3;
- D) 4.

4. Ikki tovush birin-ketin eshitilsa qanday interval deyiladi?

- A) Garmonik;
- B) Tarkibli;
- C) Melodik;
- D) Ohangdosh.

5. Intervallar nomi to'g'ri yozilgan qatorni aniqlang.

- A) Prima sekunda kvarta kvinta tersiya septima seksta oktava;
- B) Prima sekunda tertsiya kvarta kvinta seksta septima oktava;
- C) Prima tertsiya kvarta kvinta sekunda seksta septima oktava;
- D) Prima sekunda tertsiya septima seksta kvarta kvinta oktava.

6. Kat 6 necha tondan iborat?

- A) 4,5;
- B) 4;
- C) 5,5;
- D) 5.

7. Major so'zi harfiy sistemada nima deb belgilanadi?

- A) Moll;
- B) Is;
- C) Dur;
- D) Es.

8. 6\8 o'lchovi qaysi o'lchov turiga kiradi?

- A) Oddiy;
- B) O'zgaruvchan;
- C) Aralash;
- D) Murakkab.

9. Fortepiano qanday asbob?

- A) Urrib chalinadigan klavishli asbob;
- B) Yog'ochdan yasalgan puflama cholg'u asbobi;
- C) Havo yordamida chalinadigan klavishli yirik cholg'u asbobi;
- D) Torli tirnama cholg'u asbobi.

10. Imitatsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, ... degan ma'noni bildiradi.

- A) O'ylab topish ijod qilish;
- B) To'satdan ko'tilmaganda;
- C) Tuzuvchi;
- D) O'xshatish ergashish.

11. Lotincha tres so'zidan olinib, uch notadan tuzilgan maxsus ritmik shakl bo'lib, ... degan ma'noni bildiradi.

- A) Tremola;
- B) Triol;
- C) Transpozitsiya;
- D) Tovush qator.

12. Ityalyancha so'zdan olinib «kichik» degan ma'noga ega bo'lgan so'z – bu...

- A) Major;
- B) Dinamik belgi;
- C) Pauza;
- D) Minor.

13. Ovozni bir maromda kuchaytiruvchi belgi nomini ko'rsating.

- A) Forte;
- B) Piano;
- C) Krishenda;
- D) Pianissimo.

14. D7 akkord nechta aylanmaga ega?

- A) 3;
- B) 4;
- C) 2;
- D) 5.

15. D7 akkordning ikkinchi aylanmasini toping.

- A) T6;
- B) D4\3;
- C) D6\5;
- D) T6\4.

16. Qaysi qatorda D2 akkordning interval oralig'i to'g'ri yozilgan?

- A) Kich 3+kat2+kat3;
- B) Kat3+kich3+kich3;
- C) Kich3+kich3+kat2;
- D) Kat2+kat3+kich3.

17. Modulyatsiya deb nimaga aytiladi?

- A) Asosiy pog'onalarning ko'tarilishi yoki pasayishiga;
- B) Ladlarning ketma-ket kelgan pastki yoki yuqoridagi to'rtta pog'onaga;
- C) Musiqaviy asarning biror bir yangi tonallikka o'tishi va shu tonallik bilan yakunlanishiga;
- D) Bir xil nomdagi tovushlar oralig'iga.

18. **Major va garmonik minorning V pog'onasidan tuzilgan akkord – bu**

...

- A) D7;
- B) 3 tovushlik;
- C) Transpozitsiya;
- D) Interval aylanishi.

19. **D6\5 akkord nechanchi pog'onadan tuziladi?**

- A) IV;
- B) VII;
- C) V;
- D) II.

20. **Fa minor tonalligining parallelini aniqlang.**

- A) F-DUR;
- B) D-DUR;
- C) AS-DUR;
- D) A-DUR.

4-chorak yakunida o'tkaziladigan oraliq nazorat uchun test topshiriqlari

1. **D7 akkord nechta tovushdan tuziladi?**

- A) 4;
- B) 2;
- C) 3;
- D) 5.

2. **H-DUR va gis mollda nechta alteratsiya belgilari bor?**

- A) 4;
- B) 6;
- C) 3;
- D) 5.

3. **D7 akkordning yechilishi raqami qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) I-I-V-III;
- B) III-I-I-I;
- C) V-III-I-I;
- D) I-V-III-I.

4. **Qaysi qatorda D4\3 akkordning interval oralig'i to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Kich³+kich³+kat²;
- B) Kat²+kat³+kich³;
- C) Kat³+kich³+kich³;
- D) Kich³+kat²+kat³.

5. Xromatizm yunoncha so'zdan olinib, ... degan ma'noni bildiradi.

- A) Bir pog'onadan tovushlarning o'zgarishi;
- B) Bir tonikadan boshqa bir tonikaga vaqtincha o'tishi;
- C) Sonata shaklidagi musiqa asari;
- D) Uch tovushni tez ijro etish.

6. Si major gammasining alteratsiya belgilari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) Fa#do# re#sol#lya#;
- B) Do#re#fa#sol#lya#;
- C) Fa#do#sol#re#lya#;
- D) Fa#sol#re#do#lya#.

7. Intervallar qanday miqdor bilan aniqlanadi?

- A) Birin-ketin;
- B) O'zgaruvchan;
- C) Baravariga;
- D) Son va sifat.

8. Ort4 va kam5 uchtonlikni to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) Do fa# – do sol b;
- B) Do fa – do sol;
- C) Do sol# – do sol b;
- D) Do mi# – do fa b.

9. Temp musiqa asari ijro qilish sur'ati necha xil bo'ladi?

- A) 4;
- B) 2;
- C) 1;
- D) 3.

10. Soprano xor ijrochiligida kimning ovozig kiradi?

- A) Erkaklarning past ovozi;
- B) Xotin-qizlarning past ovozi;
- C) Erkaklarning baland ovozi;
- D) Xotin-qizlarning baland ovozi.

11. Polimetriya so'zining ma'nosi – bu

- A) Bir taktning o'zida kuchli va kuchsiz hissalarining bir-biriga qo'shilib kelishi;
- B) templarni aniq belgilash va o'lchash uchun qo'llanadigan maxsus asbob;
- C) musiqa asarining bir vaqtning o'zida har xil o'lchovlarda yangrashi;
- D) tabiiy major va tabiiy minorning to'rtinchi pog'onasidan tuzilgan akkord;

12. **Qaysi gammada 3 ta alteratsiya belgilari bor?**

- A) D-DUR;
- B) ES-DUR;
- C) C-DUR;
- D) A-DUR.

13. **Melodik minorda qanday o'zgarish bo'ladi?**

- A) 6-7-pog'ona ko'tarilib qaytishda tabiiy bo'lib qaytadi;
- B) 7-pog'ona ko'tariladi;
- C) tabiiy borib qaytishda 6-7-pog'ona pasayadi;
- D) 6-pog'ona ko'tariladi.

14. **D7 akkordning birinchi aylanmasi nomini toping.**

- A) D6\5;
- B) D2;
- C) T5\3;
- D) D4\3.

15. **Intervalning eng yuqori tovushi nima deb ataladi?**

- A) Nona;
- B) Asos;
- C) Unison;
- D) Cho'qqi.

16. **Bitta oktavada nechta sof intervallar, nechta uchtonlik bor?**

- A) 5 ta sof interval, 1 ta uchtonlik;
- B) 4 ta sof interval, 2 ta uchtonlik;
- C) 2 ta sof interval, 2 ta uchtonlik;
- D) 3 ta sof interval, 3 ta uchtonlik.

17. **Tarkibli intervalda oktava orqali tuzilgan kvinta nomini belgilang.**

- A) Oktava;
- B) Nona;
- C) Duodetsima;
- D) Kvartdetsima.

18. **Tonika nima?**

- A) Turg'un tovushlari minor uchtovushlikni hosil qilgan yetti pog'onali lad;
- B) ladning asosiy tayanch tovushi vazifasini bajaruvchi I pog'ona;
- C) Tersiya bo'yicha joylashgan to'rt tovushdan iborat akkord;
- D) Tovush qator asosiy pog'onalarining ko'tarilishi yoki pasaytirilishi.

19. **Uchtovushlikning ikkinchi aylanmasini toping.**

- A) S6;
- B) T6;

- C) $S\sqrt[3]{3}$;
- D) $T\sqrt[6]{4}$.

20. Ovozni bir maromda kuchaytiruvchi belgi nomini ko'rsating.

- A) Forte;
- B) Piano;
- C) Krishendo;
- D) Pianissimo.

Xulosa va tavsiyalar

Hozirgi kunda Respublikamizning ayrim o'quv yurtlarida test sinovlariga kiritilishi kerak bo'lgan test topshiriqlarining soni aniqlangan.

Agar test savollarining sonini tuzuvchining o'zi aniqlashi lozim bo'lsa, unda quyidagicha bo'lishi mumkin:

- joriy nazorat - 4-5 topshiriq (o'tkazish vaqti 8-10 daqiqa);
- oraliq nazorat - 15-20 topshiriq (o'tkazish vaqti 30-40 daqiqa);
- yakuniy nazorat - 20 va undan ortiq (o'tkazish vaqti 40 daqiqadan 1,5 soatgacha).

Joriy nazorat uzluksiz teskari bog'lanishni ta'minlaydi, odatda bunday nazorat baholashsiz o'tkazilishi ham mumkin. SHunday qilib ushbu nazorat bilimlar shakllanishida ishtirok etadi. SHuni ta'kidlash lozimki, pedagogik texnologiyada teskari bog'lanish nafaqat o'qitishning borishini korrektsiyalash uchun, balki o'quv maqsadlarini aniqlash uchun ham xizmat qiladi. Oraliq va yakuniy nazoratda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishish baholanadi.

Nazorat og'zaki, yozma yoki test usulida bo'lishi mumkin. Bilimlarni nazorat qilishning bu turlarini qo'llashning xususiyatlarini qarab chiqaylik.

Og'zaki nazoratning afzalliklariga shaxsiy kontakt, o'qituvchining o'quvchi bilan tirik dialogi, uni aytadiganlarini nutq shaklida ifodalashga mashq qildirish, bilimlarni yanada chuqurroq tekshirish uchun pedagog tomonidan qo'shimcha savollar berish imkoniyati kiradi. Pedagog tomonidan qo'yilgan savolga og'zaki javob berishga tayyorlanish doimo o'quvchining faol fikrlash faoliyati bilan bog'langan.

Yozma nazorat o'quv materialini o'zlashtirish darajasini hujjatli tarzda o'rgatish imkonini beradi, shuningdek o'quvchiga o'z fikrlarini qog'ozda bayon qilish amaliyotini beradi. Ikki-uchta mustakil ekspertlarni ishlarni tekshirish uchun jalb qilish bilan o'tkaziladigan tashqi yozma nazorat aniq mezonlar bo'lgan taqdirda ob'ektiv bahoga yaqin baholashga imkon beradi. Ammo bilimlarni og'zaki va yozma nazorat qilishning an'anaviy usuli ma'lum kamchiliklarga ham ega:

- imtihonda o'quvchi imtihon biletining 3-4 ta savoliga javob beradi, baho esa hamma o'quv fanini bilish uchun qo'yiladi;
- farq qilish qobiliyati kuchsiz bo'lgan 5 ballik shkala ishlatilgan;
- og'zaki va yozma nazorat har doim ham bilimlarni baholashning ob'yektivligini, aniqligini va ishonchliligini ta'minlamaydi;
- og'zaki so'rov ko'p o'quv vaqti sarflanishini talab qiladi, yozma ishlar pedagoglarning ularni tekshirishga ko'p mehnat sarflashlari bilan bog'liq.

Test nazoratining afzalliklari:

- yetarli tarzda tuzilgan pedagogik test natijalari nazorat o'tkazayotgan shaxsga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv pedagogik o'lchov quroli hisoblanadi;
- test o'quv materialining barcha asosiy mazmunini qamrab olishi mumkin;
- o'qitish natijalarini test usulida o'lchash (testlar to'g'ri ishlab chiqilganda) barcha tekshiriluvchilarga baravar qo'llaniladigan oldindan ishlab chiqilgan shkala asosida aniq va ishonchli baho beradi;

- test nazorati texnologiyali, u nisbatan qisqa vaqt ichida ma'lum o'quv materialini o'zlashtirishni to'la nazorat qilishni minimal kuch va vositalar sarflab o'tkazish imkonini beradi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun abituriyentlarni test usulida tanlashni kiritish ko'p kunlik charchatadigan kirish imtihonlaridan voz kechish va nazorat amalini bir kunda bir necha soat davomida o'tkazish imkonini beradi;

- test nazorati kompyuterlar yordamida oson avtomatlashtiriladi.

Bu pedagogik test o'tkazishning asosiy afzalliklaridan biridir.

Test topshiriqlarining to'g'ri javoblar kalitlari

1-chorak yakunida o'tkaziladigan oraliq nazorat uchun test topshiriqlarining to'g'ri javoblar kaliti

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	C	B	D	C	A	D	A	A	D
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
B	C	B	A	B	D	A	C	D	A

2-chorak yakunida o'tkaziladigan oraliq nazorat uchun test topshiriqlarining to'g'ri javoblar kaliti

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	C	B	D	B	C	A	D	B	A
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
D	B	A	D	A	C	B	D	C	A

3-chorak yakunida o'tkaziladigan oraliq nazorat uchun test topshiriqlarining to'g'ri javoblar kaliti

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	B	D	C	B	A	C	D	A	D
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
B	D	C	A	B	D	C	A	B	C

4-chorak yakunida o'tkaziladigan oraliq nazorat uchun test topshiriqlarining to'g'ri javoblar kaliti

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	D	B	D	A	C	D	A	D	D
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
C	D	A	A	D	B	C	B	D	C

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq”, 1997.
2. Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta’lim standarti. –T.: “Ma’rifat-Press”, 2010.
3. Musiqa madaniyati fanidan o‘quv dasturi. –T.: “Ma’rifat-Press”, 2010.
4. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablari. –T.: Xalq ta’limi vazirligi, 2011.
5. I.A.Akbarov. Musiqa lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”, 1987.
6. R.H.Jo‘rayev va boshqalar. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: “Fan”, 2005.
7. V.A.Vaxromeyev. Musiqaning elementar nazariyasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1980.
8. www.avloniymtk.uz.

